


O‘zbekiston Respublikasi
Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi
O‘zbekiston Respublikasi tog‘-kon sanoati va geologiya vazirligi

*70721602 - Neft va gaz konlar geologiyasi, qidiruv va razvedkasi
magistratura mutaxassisligining malaka talablari*

Toshkent 2023



ISHLAB CHIQILGAN:

- Geologiya fanlari universiteti;

TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023 yil «21» 08 dagi 367 - sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan.

JORIY ETILGAN:

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi.

Mazkur Malaka talablari "Oliy ta'lim davlat ta'lim standarti. Asosiy qoidalar", "Oliy ta'lim davlat ta'lim standarti. Oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori", O'zbekiston Respublikasi Milliy va tarmoq malaka doiralari (ramkasi), kasbiy standartlar va kadrlar buyurtmachilari takliflariga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy me'yoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi hududida Malaka talablarini rasmiy chop etish huquqi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga tegishlidir.

MUNDARIJA

T/r		bet
1.	<i>70721602 - Neft va gaz konlari geologiyasi, qidiruv va razvedkasi magistratura mutaxassisligining umumiy tasnifi</i>	4
1.1.	Qo‘llanish sohasi	4
1.1.1.	<i>70721602 - Neft va gaz konlari geologiyasi, qidiruv va razvedkasi magistratura mutaxassisligi malaka talabining qo‘llanishi</i>	4
1.1.2.	Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari	4
1.2.	<i>70721602 - Neft va gaz konlari geologiyasi, qidiruv va razvedkasi magistratura mutaxassisligi bo‘yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining tasnifi</i>	4
1.2.1.	<i>70721602 - Neft va gaz konlari geologiyasi, qidiruv va razvedkasi magistratura mutaxassisligi bo‘yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining sohalari</i>	4
1.2.2.	<i>70721602 - Neft va gaz konlari geologiyasi, qidiruv va razvedkasi magistratura mutaxassisligi bo‘yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining ob‘ektlari</i>	4
1.2.3.	<i>70721602 - Neft va gaz konlari geologiyasi, qidiruv va razvedkasi magistratura mutaxassisligi bo‘yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining turlari</i>	5
1.2.4.	<i>70721602 - Neft va gaz konlari geologiyasi, qidiruv va razvedkasi magistratura mutaxassisligi bo‘yicha magistrlar kasbiy vazifalari</i>	5
2.	<i>70721602 - Neft va gaz konlari geologiyasi, qidiruv va razvedkasi magistratura mutaxassisligi bo‘yicha magistrarning kasbiy kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar</i>	6
2.1.	Umumiy kompetensiyalar	6
2.2.	Kasbiy kompetensiyalar	6
2.3	Umumiy va kasbiy kompetensiyalarni egallashni ta’minlaydigan fanlar va amaliyotlarga qo‘yiladigan talablar	7
2.3.1.	Kvalifikatsiya	
2.3.2.	<i>70721602 - Neft va gaz konlari geologiyasi, qidiruv va razvedkasi magistratura mutaxassisligi uchun ajratilgan o‘quv fanlari, bloklar bo‘yicha soatlar va kreditlar</i>	8
2.3.3.	<i>70721602 - Neft va gaz konlari geologiyasi, qidiruv va razvedkasi magistratura mutaxassisligi bo‘yicha ta’lim dasturining tuzilishi</i>	8
	Bibliografik ma’lumotlar	10
	Kelishuv varag‘i	12

70721602 - Neft va gaz konlari geologiyasi, qidiruv va razvedkasi magistratura mutaxassisligining umumiy tasnifi

70721602 - Neft va gaz konlari geologiyasi, qidiruv va razvedkasi magistratura mutaxassisligi bo'yicha magistrlar tayyorlash kunduzgi ta'lim shaklida amalga oshiriladi. Barcha ta'lim shakllari bo'yicha o'qitish kredit-modul tizimi asosida tashkil qilinadi. Magistratura dasturini amalga oshirish muddati 2 yil.

1.1. Qo'llanish sohasi.

1.1.1. 70721602 - Neft va gaz konlari geologiyasi, qidiruv va razvedkasi magistratura mutaxassisligi Malaka talabining qo'llanilishi.

Malaka talabi 70721602 - Neft va gaz konlari geologiyasi, qidiruv va razvedkasi magistratura mutaxassisligi bo'yicha magistrlar tayyorlovchi barcha oliy ta'lim muassasalari uchun talablar majmuini ifodalaydi.

1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari:

- mazkur magistratura mutaxassisligi bo'yicha malaka talablari, o'quv reja va fan dasturlarini ishlab chiqish va yangilash, ular asosida o'quv jarayonini samarali amalga oshirish uchun mas'ul hamda o'z vakolat doirasida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta'lim muassasasining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o'quv bo'limi boshlig'i, dekanlar va kafedra mudirlari) va professor-o'qituvchilari;

– magistratura mutaxassisligining o'quv rejasi va fan dasturlarini o'zlashtiruvchi oliy ta'lim muassasasining talabalari;

– magistratura bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestatsiya komissiyalari;

– ta'limni boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organlari;

– oliy ta'lim muassasalarini moliyalashtirishni ta'minlovchi organlar;

– oliy ta'lim tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli davlat organlari;

– kadrlar buyurtmachilari va ish beruvchi tashkilot va korxonalar;

– oliy ta'lim muassasalariga o'qishga kirayotgan bakalavriat bitiruvchilari va boshqa manfaatdor shaxslar.

1.2. 70721602 - Neft va gaz konlari geologiyasi, qidiruv va razvedkasi magistratura kasbiy faoliyatlarining tavsifi.

1.2.1. 70721602 - Neft va gaz konlari geologiyasi, qidiruv va razvedkasi magistratura kasbiy faoliyatining sohalari:

70721602 - Neft va gaz konlari geologiyasi, qidiruv va razvedkasi mutaxassisligi – neft va gaz geologiyasi sohasidagi mutaxassislik bo'lib, barcha ta'lim muassasalarida mutaxassislikka oid fanlarni o'qitish, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi va tarmoq ilmiy tadqiqot institutlarida, davlat va xo'jalik boshqaruvi organlarida, aksiyadorlik jamiyatlarida, ishlab chiqarish korxonalarida, jumladan: neft va gaz konlari geologiyasi hamda qidiruvi razvedkasi institutida, geofizika ekspeditsiyalarida ilmiy tadqiqotlarni loyihalash va amalga oshirish ishlari bilan shug'ullanuvchi, har xil mulk shaklidagi, sanoat va biznes tashkilotlari kompleksini qamrab oladi.

1.2.2. 70721602 - Neft va gaz konlari geologiyasi, qidiruv va razvedkasi magistratura mutaxassisligi bo'yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining ob'ektlari:

- neft va gaz konlarini qidirish va razvedka qilish ishlarini amalga oshiruvchi korxonalar va tashkilotlar;
- ular tomonidan xududlarda neft va gaz konlarini qidirish va baholash bo'yicha olib boriladigan dala (ekspeditsiya), burg'lash ishlari;
- tog' jinslari va neft va gaz na'munalari moddiy tarkibini tahlil qilishga moslashtirilgan laboratoriya majmualari, ularda qo'llaniladigan asbob-uskunalar, zamonaviy jihozlari;
- neft va gaz konlarini qidirish, razvedka qilish va baholashga doir masalalarni yechish bo'yicha to'plangan ma'lumotlar talqini va kompyuter dasturlari asosida ularni qayta ishlash majmualari;
- sohada geofizikaviy, geokimyoviy, litologik va boshqa usullarni qo'llanishi;
- olingan ma'lumotlardan foydalanadigan va ularni talqin qilish bilan shug'ullanuvchi ishlab chiqarish korxonalari, birlashmalar, ilmiy-tadqiqot institutlari, OTM larning ilmiy tadqiqot laboratoriyalari;
- oliy ta'lim, qayta tayyorlash va malaka oshirish, professional ta'lim muassasalari;
- Fanlar akademiyasi va tarmoq ilmiy-tadqiqot institutlari va markazlari;
- davlat va nodavlat boshqaruv organlari.

1.2.3. 70721602 - Neft va gaz konlari geologiyasi, qidiruv va razvedkasi magistratura magistratura mutaxassisligi bo'yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining turlari:

- ilmiy-tadqiqot faoliyati;
- geologiya-qidiruv ishlari va loyihalashtirish;
- ishlab chiqarish-texnologik faoliyat;
- tashkiliy-boshqaruv faoliyati;
- oliy, malaka oshirish, qayta tayyorlash ta'lim muassasalarida soha bo'yicha ilmiy-pedagogik hamda o'rta maxsus, kasb-hunar ta'lim tizimida pedagogik faoliyat;
- davlat va nodavlat boshqaruv organlarida xizmatlar ko'rsatish.

1.2.4. 70721602 - Neft va gaz konlari geologiyasi, qidiruv va razvedkasi magistratura mutaxassisligi bo'yicha magistrning kasbiy vazifalari:

70721602 - *Neft va gaz konlari geologiyasi, qidiruv va razvedkasi* magistratura mutaxassisligi bo'yicha Milliy malaka ramkasining 7-malaka darajasi hamda magistr kasbiy faoliyatlarining sohalari, ob'ektlari va turlariga muvofiq magistratura bitiruvchisi quyidagi kasbiy vazifalarni bajarishga qodir bo'lishi lozim:

Ilmiy tadqiqot va pedagogik faoliyatida:

- ilmiy, amaliy tadqiqotlarni o'tkazish, tajriba natijalarini tahlil qilish va ular asosida ilmiy asoslangan xulosalar chiqarish, ilmiy yangiliklarni kashv etish;
- ilmiy maqolalar, ma'ruzalar, risola, o'quv adabiyotlar tayyorlash va tahrir qilish, o'tkazilayotgan tadqiqotlar mavzusi bo'yicha ilmiy sharhlarni ishlab chiqish, referatlar va bibliografiyalarni tuzish;
- ilmiy adabiyotlar va internet tarmog'ida eng yangi ilmiy, konstruktorlik, texnologik va ekspluatatsion yutuqlar haqidagi ma'lumotlarni maqsadga yo'nalgan holda qidirish va topish;
- ilmiy seminar, konferensiya va simpoziumlarni tashkil etish, o'tkazish hamda faol ishtirok etish;
- mos mutaxassislik mavzusi bo'yicha ilmiy loyihalarni ishlab chiqish, yechilayotgan ilmiy muammolar va topshiriqlarning konseptual va nazariy modellarini ishlab chiqish;
- oliy ta'lim, qayta tayyorlash va malaka oshirish, professional ta'lim muassasalarida mutaxassisligi bo'yicha pedagogik va o'quv-uslubiy faoliyat yuritish;
- o'quv jarayonini va ilmiy faoliyatni tashkil qilish, zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalardan, o'qitishning texnik vositalaridan foydalanib o'quv mashg'ulotlarini o'tkazish;
- elektron (e-learning), mobil (m-learning), masofaviy axborot texnologiya va o'quv-metodik majmualarni mukammal o'zlashtirish;

Texnologik faoliyatida:

- yer po'stining geologik tuzulishini o'rganishda, asosiy geodinamik jarayonlar ko'rsatkichlarini tahlil qiluvchi laboratoriya va korxonalarda ishlash;

- mutaxassislik bo'yicha maxsulotning jahondagi texnikaviy darajasini, mazkur mahsulotni ichki va tashqi bozordagi o'sish holati, ishlab chiqarish va talab dinamikasining o'zgarishi, hamda istiqbolli yo'nalishlarni aniqlash;

- Geologik syomka, foydali qazilmalar konlarini qidirish ishlarni loyihalash va bajarish bo'yicha alohida bo'limlarni boshqarish (dala va kameral sharoitda);

- muammolarini chuqur tahlil qilish, masalalarni qo'yish va asoslash;

- bajarilayotgan tajriba-konstruktorlik va amaliy ishlar mavzusi bo'yicha matematik, informatsion shuningdek, imitatsion modellarni ishlab chiqish va tadqiq qilish;

- namunaviy texnologik jarayonlarni ishlab chiqish va ularni qo'llash;

- loyihaviy va dasturiy hujjatlarni ishlab chiqish va ularni bartaraf etish choralarini ko'rish.

Loyihalash-texnologik faoliyatida:

- bajarilayotgan tajriba-konstruktorlik va amaliy ishlar mavzusi bo'yicha matematik, informatsion va imitatsion modellarni ishlab chiqishi va tadqiqot qilishi;

- namunaviy texnologik jarayonlarni ishlab chiqish qobiliyatiga ega bo'lishi;

- ilmiy va amaliy faoliyatda avtomatlashtirilgan tizimlarning instrumental vositalari va muhitlarini rivojlantirish malakalariga ega bo'lishi;

- Zamonaviy geologik syomka, foydali qazilmalar konlarini qidirish ishlarini loyihalash va bajarish;

- loyihalash va yaratish jarayonida dala sharoitida va hisoblash markazida olingan ma'lumotlarni qayta ishlash, olingan ma'lumotlarni tahlil qilish va so'ngi ishlab chiqarish va ilmiy natijalarni chiqarish, geologik syomka, foydali qazilmalar konlarini qidirish uslubiyatini ishlab chiqish va amalga oshirish

Tashkiliy-boshqaruv hamda ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish faoliyatida:

- ishlab chiqarishni tashkil etish va boshqarish;

- loyihalarni boshqarish, ishlab chiqarish jarayonlari va resurslarini rejalashtirish, bo'lishi mumkin bo'lgan xavf-xatarlarni tahlil qilish, loyiha komandasini boshqarish;

- ijrochilar va ilmiy tadqiqot jamoasi ishini tashkil qilish va boshqarish;

- zamonaviy axborot texnologiyalari tizimini yaratish va ularning ekspluatatsiyasi bilan bog'liq bo'lgan ishlab chiqarish jarayonlari monitoringi va sifatini baholash usullari va mexanizmlarini ishlab chiqish;

- fikrlar har xil bo'lgan sharoitda boshqaruv qarorini qabul qilish;

- qabul qilinayotgan qarorlarni miqdoriy va sifat bo'yicha baholash, ilmiy yutuqlarni qo'llay olish;

- atrof-muhitni muhofaza qilish va mehnat xavfsizligi talablariga mos kelishi borasida ishlab chiqarish jarayonlarini nazorat qilishda ishtirok etish;

- kasbiy etika kodeksiga rioya qilish *qobiliyatiga ega bo'lishi lozim.*

1. 70721602 - Neft va gaz konlari geologiyasi, qidiruv va razvedkasi magistratura mutaxassisligi bo'yicha magistrnlarning kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar

2.1. Umumiy kompetensiyalar:

- davlat siyosatining dolzarb masalalarini bilish, ijtimoiy-iqtisodiy muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qila olish;

- xorijiy tillardan birida kasbiy faoliyatiga oid hujjatlar va ishlar mohiyatini tushunish, tabiiy ilmiy fanlar bo'yicha kasbiy faoliyati doirasida zaruriy bilimlarga ega bo'lish hamda ulardan zamonaviy ilmiy asosda kasb faoliyatida foydalana bilish;

- axborot texnologiyalarini kasbiy faoliyatida qo'llay bilish, axborotlarni yig'ish, saqlash, qayta ishlash va ulardan foydalanish usullarini egallashi, faoliyatida mustaqil asoslangan qarorlar qabul qila olish;

- yangi bilimlarni mustaqil egallay bilish, o'z ustida ishlash va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olish;

- sog'lom turmush tarzi va unga amal qilish zaruriyati to'g'risida tassavvurga ega bo'lish.

2.2. Kasbiy kompetensiyalar:

– ilmiy, amaliy tadqiqotlar olib borish, tajriba natijalarini qayta ishlash va ular asosida ilmiy asoslangan xulosalar chiqarish, ilmiy maqolalar tayyorlash va tahrir qilish, ilmiy seminar, konferensiya va simpoziumlarni tashkil etish, o'tkazish, ilmiy loyihalarni ishlab chiqish ko'nikmalariga ega bo'lish;

- pedagogik faoliyatda axborot va pedagogik texnologiyalardan foydalanishni bilish;
- ta'lim sifati va samaradorligini oshirishga innovatsion yondashishni bilish;
- ilmiy faoliyati natijalari bo'yicha davlat va xorijda e'lon qilingan loyihalarda ishtirok etish uchun loyiha tayyorlash ko'nikmalariga ega bo'lish;

- davlat, nodavlat va notijorat tashkilotlar tomonidan e'lon qilingan loyihalarda ishtirok etish uchun loyiha tayyorlash malakalariga ega bo'lish;

- ishlab chiqarish jarayonlarini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan vosita va resurslarini to'g'ri rejalashtirish;

- axborot texnologiyalaridan samarali foydalanish tizimini yaratish va ularning ekspluatatsiyasi bilan bog'liq jarayonlar monitoringi va sifatini baholash uslublari va mexanizmlarini ishlab chiqish;

- atrof–muhitni muhofaza qilish va ishlab chiqarish jarayonlarining mehnat xavfsizligi talablariga mos kelishini nazorat qilish;

- muhandislik va konstruktorlik yechimlarni amaliyotga tadbiiq qilish;

- ishlab chiqarish jarayonida sifatni boshqarish;

- ijrochilar jamoasi ishini tashkil qilish;

- fikrlar xilma–xilligi sharoitda boshqaruv qarorini qabul qilish;

- birlamchi konstruktorlik, texnologik yoki ishlab chiqarish bo'limlari ishini tashkil qilish va uni boshqarish;

- bajariladigan ish rejasini tuzish va bu ishni nazorat qilish, ishni bajarish uchun zarur bo'lgan resurslarni rejalashtirish, o'z ishining natijalarini baholash;

- ishlab chiqarish jarayonlarining atrof–muhitga ta'sirini va ishchi–xizmatchilarning mehnat xavfsizligini nazorat qilish tizimi talablariga mosligini monitoring qilib borish **qobiliyatiga ega bo'lishi kerak.**

2.3. Umumiy va kasbiy kompetensiyalarni egallashni ta'minlaydigan fanlar va amaliyotlarga qo'yiladigan talablar.

Magistratura mutaxassisligi o'quv rejasi kredit-modul tizimi asosida shakllantiriladi va kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablarga muvofiq, talabalar majburiy va tanlov fanlarini o'zlashtirishi, ilmiy amaliyotlarni (stajirovka) o'tishi va natijada kasbiy faoliyatida zarur bilim, ko'nikma va malaka kompetensiyalarini egallashini ta'minlovchi mazmunda ishlab chiqiladi.

1. Majburiy fanlar (mantiqiy uzviyligi bo'yicha):

➤ Mantiqiy davomli fanlar – mantiqiy ketma-ketlikda bir-birini to'ldiruvchi fanlar jamlamasi. Bunda oldin keladigan fan bo'yicha talabanning kredit ololmasligi, keyingi mantiqiy davomi bo'lgan fan bo'yicha talabanning mashg'ulotlarga kiritilmasligiga olib kelishi mumkin.

➤ Alohida fanlar – kasbiy kompetensiyalarni yakka holda shakllantirishga xizmat qiladigan davomli bo'lmagan fanlar. Bunda mazkur fanlar bo'yicha talaba kredit ololmaganiga GPA bo'yicha o'zlashtirish ballari etarli bo'lsa, keyingi bosqichda boshqa fanlar bo'yicha talabanning mashg'ulotlarni davom ettirish imkonini beradi.

2. Tanlov fanlari.

➤ Chuqur ixtisoslashuv tanlov fanlari – ixtisoslashuvdan kelib chiqib, chuqurlashtirilgan fanlar bo'yicha qo'shimcha bilim berishga va bevosita ixtisosligi uchun zarur kompetensiyalarni kengaytirishga xizmat qiladigan fanlar jamlamasi. Ushbu fanlarga jami tanlov fanlariga ajratilgan soatlarning 80 % dan kam bo'lmagan qismi taqsimlanishi mumkin.

➤ Shaxsiy qiziqishga qaratilgan fanlar – talabanning tanlagan mutaxassislikdan qat'iy nazar,

shaxsiy qiziqishlari, ijodiy yondashuvlari va iqtidorini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan fanlar. Ushbu fanlarga jami tanlov fanlariga ajratilgan soatlarning 20 % dan ko'p bo'lmagan qismi taqsimlanishi mumkin.

Ilmiy faoliyat bloki ilmiy tadqiqotlar metodologiyasi o'zlashtirilishini, talabalar tomonidan ixtisoslashgan ilmiy va ta'lim muassasalarida atrof-muhit muhofazasi sohasidagi ilmiy-tadqiqot va ilmiy-pedagogik ishlar bajarilishini nazarda tutishi lozim.

Ilmiy-tadqiqot ishi va magistrlik dissertatsiyasini tayyorlash hamda himoya qilishga bo'lgan talablar:

mustaqil tadqiqotchilik faolyatining amaliy ko'nikmalarini hosil qilishi;

axborot texnologiyalarining zamonaviy vositalaridan foydalanib ilmiy-tadqiqotlar o'tkazish, tadqiqotlar natijalarini tahlil qilish va aks ettirish, ilmiy maqolalar tayyorlashga doir bilimlar va ko'nikmalarni shakllantirish;

talabalarga soha bo'yicha fan, texnika va texnologiyaning eng yangi yutuqlariga asoslangan axborot bazalarini qo'llay bilish, ulardan magistrlik dissertatsiyasini bajarishda foydalanish ko'nikmasini singdirishi lozim.

Ilmiy pedagogik ishlar:

zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalaridan, o'quv-tarbiya ishlarining interaktiv usullaridan foydalangan holda pedagogik faoliyat mahorati va ko'nikmalarini shakllantirish;

o'quv jarayonini ilmiy-uslubiy jihatdan ta'minlashni tashkil etish o'quvi va ko'nikmalarini hosil qilishi lozim.

O'quv rejasidagi fanlar mazmuniga qo'yiladigan umumiy talablar

A. Majburiy fanlar

Mantiqiy davomli fanlar – mantiqiy ketma-ketlikda bir-birini to'ldiruvchi fanlar jamlamasi. Bunda oldin keladigan fan bo'yicha talabaning kredit ololmasligi, keyingi mantiqiy davomi bo'lgan fan bo'yicha talabaning mashg'ulotlarga kiritilmasligiga olib kelishi mumkin.

Alohida fanlar – kasbiy kompetensiyalarni yakka holda shakllantirishga xizmat qiladigan davomli bo'lmagan fanlar. Bunda mazkur fanlar bo'yicha talaba kredit ololmaganiga GPA bo'yicha o'zlashtirish ballari etarli bo'lsa, keyingi bosqichda boshqa fanlar bo'yicha talabaning mashg'ulotlarni davom ettirish imkonini beradi.

B. Tanlov fanlari ta'lim oluvchilar qo'shimcha chuqur nazariy va amaliy bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirishini, innovatsion usullar va sohaning hududiy omillarini hisobga olgan holda kasbiy kompetensiyalarini kengaytirishga xizmat qiluvchi fanlar majmuasidan iborat bo'lib, har bir tanlov fanlari jamlamasiga ikkitadan kam bo'lmagan o'rnini bosuvchi fanlar kiritilishi mumkin. O'quv rejadagi tanlov fanlari majmuasining umumiy soni 3 tagacha bo'lishi mumkin.

C. Ilmiy amaliyot (tajriba orttirish).

Magistrlar tayyorlashda ilmiy amaliyot 4-semestrda o'tkaziladi. Bunda soha bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish, nazariy va amaliy bilimlarni chuqurlashtirish; fan, soha hamda boshqa tarmoqlardagi zamonaviy texnika va texnologiyalar bilan tanishtirish; sohaga tegishli amaliy, kasbiy va ilmiy-tadqiqot kompetensiyalarini shakllantirish; kasbga samarali moslashuv imkoniyatlarini ta'minlashi lozim. Bunda tajriba ilmiy amaliyotga yuborilgan magistratura talabasi o'quv jarayoni jadvalini individual grafik asosida bajarilishi ko'zda tutiladi.

2.3.1. Kvalifikatsiya: Neft va gaz konlari geologiyasi, qidiruvi va razvedkasi tadqiqotchisi.

2.3.12. 70721602 - Neft va gaz konlari geologiyasi, qidiruv va razvedkasi magistratura mutaxassisligi uchun ajratilgan o'quv fanlari, bloklar bo'yicha soatlar va kreditlar.

O'quv fanlari, bloklar va faoliyat turlarining nomlari	Kunduzgi ta'lim shakli uchun fanlarga ajratiladigan soat	Ajratilgan kredit
Majburiy fanlar	1230	41
Tanlov fanlari	390	13
Ilmiy faoliyat	1500	50
Davlat attestatsiyasi	480	16

2.3.3. 70721602 - Neft va gaz konlari geologiyasi, qidiruv va razvedkasi magistratura mutaxassisligi bo'yicha ta'lim dasturining tuzilishi:

T.r.	Fanning malakaviy kodi	O'quv fanlari, bloklar va faoliyat turlarining nomlari	Umumiy yuklamaning hajmi, soatlarda	Kredit miqdori	Fan o'tiladigan semestr
1.00		Majburiy fanlar	1230	41	
1.01	NGQNAM106	Neft va gaz konlarini qidirish va razvedka qilishning nazariy asoslari	180	6	1
1.02	PFKM106	Petrofizika va kollektorlar	180	6	1
1.03	NGQGAM106	Neft va gaz konlarini qidirishning geofizik usullari	180	6	1
1.04	BQTGUM105	Burg'u quduqlarini tadqiq qilishning geofizikaviy usullari	150	5	2
1.05	NGKGDGM105	Neft va gaz konlari gidrogeologiyasi	150	5	2
1.06	YMZIM104	Yerni masofadan zondlash ma'lumotlarini interpretatsiyalash	120	4	2
1.07	MVSM104	Metrologiya va standartlashtirish	120	4	2
1.08	NGRBZXM205	Neft va gaz resurslarini baholash va zaxiralarini xisoblash	150	5	3
2.00		Tanlov fanlar	390	13	3
2.00		<i>Tanlov fanlar</i>	390	13	3
		Jami	1620	54	
		Ilmiy faoliyat	1200	40	1,2,3,4
		Ilmiy amaliyot	300	10	4
		Yakuniy davlat attestatsiyasi	480	16	4
		Jami	1980	66	
		HAMMASI	3600	116	

Bibliografik ma'lumotlar

UDK: 002-651.1/7

Guruh T 55

OKS 01.040.01

Tayanch so'zlar:

Kasbiy faoliyat turi, kompetensiya, magistratura mutaxassiligi, kasbiy faoliyat ob'yekti, kasbiy faoliyat sohasi, magistraturaning asosiy o'quv reja va o'quv dasturlari, geologiya, mineralogiya, mineral, geokimyo, petrografiya, tog` jinsi, magmatizm, cho`kindi jinslar, metamorfizm, dinamometamorfizm, psevdomorfoza, metasomatit, migmatizatsiya, avtometamorfizm, granitizatsiya, stress bosim, flyuid, litostatik bosim, diaftorez, progressiv metamorfizm, polimetamorfizm, termal, kontakt, mintaqaviy metamorfizm, fatsiya, epizona, mezozona, katazona, yashil slanetslar, gneys, eklogit, okeanik yer po`sti, litogeniz, magma, lava, muzliklar, litosfera, gidrosfera, atmosfera, landshaft, gorizonttal struktura, vertikal struktura, kristall va amorf moddalar, atomlar, molekulalar, ionlar, polimorfizm, izomorfizm, kristallarning ko`rinishi, intruziv va effuziv magmatizm, aksessorlar, mos va nomos intruziyalar, batolit, lakkolit, garpolit, etmolit, dayka, shtok, sill, lopolit, fakolit, serogen struktura, bo`lakli jinslar, kimyoviy va organik cho`kindilar, psefit, psammit, alevrit, alevrolit, lyoss, pelit, geyzerlar, kaustobiolit, kon, foydali qzilma, geologiya qidiruv ishlari, geologik tadqiqotlar.

**Ishlab chiquvchilar, kelishilgan asosiy turdosh oliy ta'lim muassasalari
hamda kadrlar iste'molchilari**

ISHLAB CHIQLIGAN:

Geologiya fanlari universiteti
Rektor _____ **M.Isoqov**
2023 yil « _____ » _____

M.O'.

KELISHILGAN:

**O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy ta'limni
rivojlantirish tadqiqotlari va ilg'or
texnologiyalarni tatbiq etish markazi**

Direktor _____ **Sh.Yakubov**
2023 yil « _____ » _____

M.O'.

**I.A. Karimov nomidagi Toshkent Davlat
texnika universiteti rektori**

Rektor _____ **S.M.Turabdjano**
2023 yil « _____ » _____

**"Neft va gaz konlari geologiyasi
hamda qidiruvi instituti" DM**

Direktor _____ **O.Qarshiyev**
2023 yil « _____ » _____

M.O'.

"O'zbekgoefizika" AJ

Boshqaruvi raisi _____ **R.Yusupjonov**
2023 yil « _____ » _____

M.O'.



Geologiya fanlari universiteti
70721602 - Neft va gaz konlari geologiyasi, qidiruv va razvedkasi mutaxassisligi bo'yicha
malaka talablari va o'quv rejasining ishlab chiqaruvchilar, turdosh oliy ta'lim
muassasalari va asosiy kadrlar iste'molchilari o'rtasida

KELISHUV DALOLATNOMASI

Toshkent shahri

“ ___ ” _____ **2023 yil**

Biz quyida imzo chekuvchilar – Geologiya fanlari universiteti rektori M.U.Isoqov, “Neft va gaz konlari geologiyasi hamda qidiruvi institut” DM direktori O.Qarshiyev va I.A. Karimov nomidagi Toshkent Davlat texnika universiteti rektori S.M.Turabdjano bilan birgalikda Geologiya fanlari universitetida ishlab chiqilgan quyidagi magistratura mutaxassisligi malaka talablari va o'quv rejasini mazmuni bilan tanishib chiqib, kelishuv haqida ushbu dalolatnomani tuzdik:

1. 70721602 - Neft va gaz konlari geologiyasi, qidiruv va razvedkasi mutaxassisligi.

Malaka talablari hamda o'quv rejani ishlab chiqilishida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabrdagi “O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi 5847-sonli farmoni, 2017 yil 20 apreldagi “Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida” PQ-2909-sonli qarori, 2017 yil 27 iyuldagi “Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-3151-sonli qarori, 2018 yil 5 iyundagi “Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi PQ-3775-sonli, 2020 yil 8 iyundagi “Davlat geologiya va mineral resurslar qo'mitasi tizimida Geologiya fanlari universiteti faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-4740-sonli qarori, 2022 yil 3 martdagi “O'zbekiston Respublikasi Davlat geologiya va mineral resurslar qo'mitasi tizimidagi geologiya fanlari universiteti faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida” PQ-154-sonli qarorlariga hamda oliy ta'lim sohasini tartibga soluvchi boshqa me'yoriy-huquqiy xujjatlar, shuningdek, xalqaro talablarga asoslangan.

Mazkur malaka talablari va o'quv rejalarining ishlab chiqilishida asosiy kadrlar iste'molchilari tomonidan qo'yilgan talablar ham inobatga olingan.

Mutaxassislik bo'yicha malaka talablari o'quv reja va fan dasturlari hamda boshqa hujjatlarni yaratish uchun asos bo'lib hisoblanadi.

Ishlab chiqilgan malaka talablari va o'quv rejani o'rnatilgan tartibda tasdiqqa tavsiya etish mumkin.

Geologiya fanlari universiteti rektori

“Neft va gaz konlari geologiyasi hamda qidiruvi institut” DM direktori

I.A. Karimov nomidagi Toshkent Davlat texnika universiteti rektori

M.U.Isoqov

O.Qarshiyev

S.M.Turabdjano